

YANGI O'ZBEKISTON YANGI KONSTITUTSIYASI-TARAQQIYOTIMIZ BELGISIDIR

Kumush Zavqiyeva

Shahrisabz tumanidagi 31-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

Annontatsiya: O'zbekistonimiz kelajagi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Taraqqiyot, maqsad, konstitutsiya, ma'naviyat.

Keyingi 6 yil ichida jamiyatimiz hayotida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston jahon hamjamiyatiga ochildi, jahon hamjamiyati esa o'zi uchun O'zbekistonni kashf etmoqda. Mamlakat rahbariyati belgilagan sur'atlar hayratlanarli. Jamiyatimizning barcha jabhalarida iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va madaniy hayotida tub islohotlar boshlanib ketdi. Bizga ma'lumki, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida bugungi globallashuv jarayonida yurtdoshlarimiz va mamlakatimiz manfaatlarini to'laqonli himoya qilgan holda mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan alohida ikki yo'nalish va uning doirasida amalga oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalar belgilandi. Jumladan, Harakatlar strategiyasidan farqli ravishda beshinchi – Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish hamda oltinchi – Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi yo'nalishlar belgilandi. Galdagi vazifa ushbu yo'nalish va unda belgilagan maqsadlar bugungi zamonga mos holatda bajarilishiga xizmat qiluvchi qonun va qarorlarning hayotiyiligini ta'minlashdir. Bu esa, o'z navbatida, qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarimiz uchun bosh g'oya bo'lib xizmat qiluvchi Konstitutsiyamizni yangilab, fuqarolarimiz xohish irodasiga moslashtirishni talab etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Konstitutsiyaviy islohotlarni boshlash tashabbusi dastlab Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tomonidan ilgari surildi. Ammo ushbu tashabbusda jamiyatda adolat va qonun

ustuvorligi, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashni hamda aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi a'zolarining ham istak va xohishlari ilgari surilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu boisdan, biz barcha xalq vakillari joylarda yurtdoshlarimiz bilan o'tkazilayotgan har bir muloqot va uchrashuvlarda ularning Bosh qomusimizni takomillashtirish yuzasidan bildirgan har bir fikri va takliflarini to'laqonli o'rganib chiqqan holda Komissiya a'zolarigacha yetib kelishini ta'minlashimiz darkor. Zero, hozir xalqimiz muallifligida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi mamlaktimiz taraqqiyoti, fuqarolarimiz turmush tarzini yuksaltirish yo'lida qabul qiladigan qonunlarimiz uchun yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Bugungi kunga kelib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalqimiz uchun bir qancha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan har bir shaxs to'laqonli erkin so'zlash huquqiga ega bo'ldi. Jamiyatning asosi davlat emas, inson huquqi etib belgilandi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "INSON DAVLAT UCHUN EMAS, DAVLAT INSON UCHUN ISHLAYDI". 2022-yilning may oyi xalqimiz hayotida o'ziga xos voqelikka ega bo'lgan oy sifatida tarixga muhrlandi. Boisi 17-may kuni mamlakatimiz parlamentida eng ko'p deputatlik o'rniga ega bo'lgan ikki siyosiy partiya – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalari tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tashabbusini ilgari surishga qaratilgan qo'shma yig'ilish bo'lib o'tdi. Shuningdek, 2022- yil 20-may kuni Senat va Qonunchilik palatasi kengashlarining qo'shma majlisi o'tkazilib, yig'ilishda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish katta kuch va mas'uliyat talab qilishi bunda har bir fuqaro fikrlarini tinglash zarurligi qayd etilib, ushbu vazifalar bilan shug'ullanuvchi Konstitutsiyaviy

komissiya tashkil etilgandi. Konstitutsiyani takomillashtirish uchun fuqarolarga o'z takliflarini bildirishning bir necha ko'rinishdagi imkoniyatlari yaratilgandi. Sababi, ushbu tashabbus minglab fuqarolarimiz ko'nglidagi o'zgarish va islohotlarga zamin yaratib berishi bilan ahamiyatlidir. Barchamizga ma'lumki, inson ulg'ayib, tafakkur dunyosi kengaygani sari uning o'ziga bo'lgan talabi ham ortib boradi. O'tgan yillar davomida jamiyatimiz va unda ilgari surilayotgan g'oya va tashabbuslarda xalqimizning ishtiroki va ular tomonidan bildirilayotgan fikr-mulohazalarining ahamiyati har tomonlama ortib bordi. Buning natijasida jamiyatimizning ham islohot va o'zgarishlarga bo'lgan talabi kun sayin ortmoqda. Bugunda esa fuqarolar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar asnosida qabul qilinishi belgilangan qonun va qarorlarimiz yanada takomillashtirilib, Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan xalqchil moddalarga moslashtirilgan holda qabul qilindi. Bosh qomusimizni takomillashtirish yuzasidan bildirgan har bir fikri va takliflarini to'laqonli o'rganib chiqilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Zero, hozir xalqimiz muallifligida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi mamlakatimiz taraqqiyoti, fuqarolarimiz turmush tarzini yuksaltirish yo'lida qabul qiladigan qonunlarimiz uchun yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilishi shubhasiz," –deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati I. Qudratov. Bundan tashqari, Konstitutsiyaga kiritilgan takliflarga muvofiq, endi O'zbekistonda saylash huquqi cheklangan shaxslar bo'lmaydi. Bu qarorning o'zidayoq inson huquqlarini Yangi O'zbekiston uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yana bir e'tiborga loyiq yangi qaror ham mavjud: Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida bugungi globallashuv jarayonida yurtdoshlarimiz va mamlakatimiz manfaatlarini to'laqonli himoya qilgan holda mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan alohida ikki yo'nalish va uning doirasida amalga oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalar belgilandi. Jumladan, Harakatlar strategiyasidan farqli ravishda beshinchi – Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish hamda oltinchi – Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi yo'nalishlar belgilandi. Ushbu yo'nalish va unda belgilagan maqsadlar bugungi zamonga mos holatda

bajarilishiga xizmat qiluvchi qonun va qarorlarning hayotiyligini ta'minlashdir. Bu esa, o'z navbatida, qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarimiz uchun bosh g'oya bo'lib xizmat qiluvchi Konstitutsiyamizni yangilab, fuqarolarimiz xohish irodasiga moslashtirishni talab etadi. Men Yangi Konstitutsiyamizga kiritilgan har bir qaror va qonunlar o'ta shaffof va adolat bilan qabul qilinganidan mamnunman. Yurtboshimiz xalqimiz uchun shunday qulay imkoniyatlarni yaratayotganligining o'zi Yangi O'zbekistonning oldiga qo'ygan maqsadlarining qanchalik mustahkam ekanligini isbotlab bermoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslari, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishga xizmat qilayotganligi tahsinga sazovor. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiya O'zbekiston uchun hayotiy zarurat bo'lib, bu mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, so'nggi olti yilda erishgan yutuqlarimiz, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo'shnilarimiz bilan o'ramizdagi "muzlar erigani" va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining konstitutsiyaviy himoyasini ta'minlash, bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo'yish talab etildi. Natijada yangi Konstitutsiyadagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" jumlasini Yangilangan Konstitutsiyamizda "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" degan norma mustahkamlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://fyut.uz>

e-library.namdu.uz

<https://Lexs.uz>